

## ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASI SHAKILLANISHIGA OID PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

**Otamurodova Muxayyoxon Alisher qizi**

**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti**

**e-mail: otamurodovamuhayyo@gmail.com**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20201909>**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi ilk o'spirinlik davrida kasb tanlash motivatsiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar hamda ushbu jarayonning nazariy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda motivatsiya tushunchasining psixologik mohiyati, ilk o'spirinlik davrining o'ziga xos xususiyatlari va kasbiy motivatsiyaning shakllanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, xorijiy hamda MDH psixolog olimlarining motivatsiya va kasb tanlashga oid ilmiy qarashlari tahlil qilinib, kasbiy motivatsiyaning rivojlanishida ehtiyojlar, qiziqishlar, qadriyatlar, individual psixologik xususiyatlar hamda ijtimoiy muhitning muhim ahamiyati keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ilk o'spirinlik, motivatsiya, kasb tanlash, ehtiyojlar ierarxiyasi, kasbiy yo'nalganlik, o'zini o'zi belgilash, determinantlar, kasblar tipologiyasi.

**Аннотация.** В данной тезисной работе проанализированы психологические факторы, влияющие на формирование мотивации выбора профессии в раннем юношеском возрасте, а также теоретические основы данного процесса. В исследовании раскрыты психологическая сущность понятия мотивации, специфические особенности раннего юношеского возраста и процесс формирования профессиональной мотивации. Кроме того, проанализированы научные взгляды зарубежных и СНГ психологов, посвященные проблемам мотивации и выбора профессии, а также отражено значение потребностей, интересов, ценностей, индивидуально-психологических особенностей и социальной среды в развитии профессиональной мотивации.

**Ключевые слова:** ранний юношеский возраст, мотивация, выбор профессии, иерархия потребностей, профессиональная направленность, самоопределение, детерминанты, типология профессий.

**Abstract.** This thesis analyzes the psychological factors influencing the formation of career choice motivation during early adolescence, as well as the theoretical foundations of this process. The study reveals the psychological essence of the concept of motivation, the specific characteristics of early adolescence, and the process of developing professional motivation. In addition, the scientific views of foreign and CIS psychologists on motivation and career choice are analyzed, and the significance of needs, interests, values, individual psychological characteristics, and social environment in the development of professional motivation is highlighted.

**Keywords:** early adolescence, motivation, career choice, hierarchy of needs, professional orientation, self-determination, determinants, typology of professions.

### **Kirish**

Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotining jadallashuvi, fan-texnika sohasidagi yangilanishlar hamda mehnat bozori talablarining o'zgarib borishi yoshlarning kasb tanlash jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda. Shaxsning kelajakdagi kasbiy faoliyatini ongli ravishda belgilashi uning nafaqat individual rivojlanishi, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, ilk

o'spirinlik davrida kasb tanlash motivatsiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ilk o'spirinlik davri shaxs kamolotining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari, qadriyatlari va kasbiy yo'nalganligi shakllanadi. Mazkur yosh bosqichida o'z imkoniyatlarini anglash, mustaqil qaror qabul qilish hamda kelajak hayotini rejalashtirishga bo'lgan intilish kuchayadi. Natijada kasb tanlash bilan bog'liq motivlar tizimi rivojlanib, bu esa shaxsning keyingi kasbiy faoliyati va ijtimoiy moslashuviga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Kasb tanlash motivatsiyasining shakllanishi shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri hamda ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, ilk o'spirinlik davrida kasbiy o'zini anglashning rivojlanishi yoshlarning kelajak faoliyatiga ongli munosabatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli mazkur jarayonni psixologik yondashuvlar asosida o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Psixologiya fanida motivatsiya tushunchasi shaxsning faol xatti-harakatlarini yuzaga keltiruvchi, uni muayyan maqsad sari yo'naltiruvchi hamda faoliyat jarayonini tartibga soluvchi psixologik mexanizmlar majmui sifatida izohlanadi. Ushbu tushuncha insonning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, qadriyatlari va individual maqsadlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, shaxs faolligining manbai sifatida namoyon bo'ladi. Motivatsiya insonning muayyan faoliyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda, uning xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonini boshqarishda muhim psixologik omil hisoblanadi. Shuningdek, motivatsiya shaxsning faoliyatga bo'lgan ichki rag'batini ifodalab, insonning maqsadga yo'naltirilgan harakatlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarda motivatsiya shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanib, uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatida shakllanishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, motivatsion jarayonlarning rivojlanishi shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini anglashida, o'z oldiga maqsad qo'yishida hamda kelajak faoliyatini rejalashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilk o'spirinlik davri shaxs rivojlanishining muhim va mas'uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda o'quvchilarning dunyoqarashi, qadriyatlari tizimi, qiziqishlari hamda kelajak hayotiga oid maqsadlari shakllanib boradi. Ayniqsa, kasb tanlash bilan bog'liq qarorlarning qabul qilinishi ushbu yosh davrining asosiy psixologik xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki ilk o'spirinlik davrida shaxsda mustaqil hayotga tayyorgarlik, o'z imkoniyatlarini baholash va jamiyatda munosib o'rin egallashga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Psixologik tadqiqotlarda kasb tanlash jarayoni shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari hamda ijtimoiy muhit ta'siri bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu davrda shakllangan kasbiy motivatsiya o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ilk o'spirinlik davrida kasb tanlash motivatsiyasining psixologik jihatlarini o'rganish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Motivatsiya muammosi psixologiya fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Turli psixologik konsepsiyalar va ilmiy yondashuvlar doirasida motivatsiyaning mohiyati, uning kelib chiqish omillari hamda shaxs faoliyatini boshqarishdagi ahamiyati yuzasidan turli nazariy qarashlar ishlab chiqilgan. Xorijiy psixologlar motivatsiyani inson ehtiyojlari, intilishlari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq murakkab psixik jarayon sifatida baholaydilar. Ushbu nazariy yondashuvlar esa

kasb tanlash motivatsiyasining shakllanish jarayonini ilmiy jihatdan tushunishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Motivatsiya muammosi xorijiy psixolog olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Xususan, Abraham Maslow motivatsiyani ehtiyojlar ierarxiyasi orqali tushuntirib, inson faoliyatining asosida ehtiyojlarni qondirishga bo'lgan intilish yotishini ta'kidlagan<sup>1</sup>. David McClelland esa muvaffaqiyatga erishish, hokimiyatga intilish va mansublik ehtiyojlarini inson faoliyatini belgilovchi yetakchi motivlar sifatida izohlaydi<sup>2</sup>. Bundan tashqari, Edward Deci va Richard Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini belgilash nazariyasida ichki va tashqi motivatsiyaning shaxs faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan bo'lib, ichki qiziqish asosidagi faoliyat barqaror motivatsiyani shakllantirishi qayd etiladi.<sup>3</sup> Ta'kidlash joizki, mazkur yondashuv shaxsning kasbiy faoliyatga bo'lgan ongli munosabatini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, John Holland kasb tanlash jarayonida shaxsning psixologik tipi va kasbiy muhit o'rtasidagi moslik muhim omillardan biri ekanligini alohida qayd etadi<sup>4</sup>.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan kasb tanlash motivatsiyasi muammosi shaxsning kasbiy shakllanishi, motivatsion rivojlanishi hamda kasbiy o'zini belgilash jarayoni bilan bog'liq holda keng tadqiq etilgan. Xususan, rus psixologiya maktabi vakillari motivatsiyani shaxs faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, uning shakllanishida ijtimoiy muhit va faoliyatning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, ilk o'spirinlik davrida kasbiy motivlarning shakllanishi, shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va ijtimoiy muhit ta'siri mazkur tadqiqotlarning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi.

MDH psixologiya maktabida kasb tanlash motivatsiyasi va kasbiy yo'nalish muammolari alohida ilmiy yo'nalish sifatida keng tadqiq etilgan. Xususan, L.I. Bojovich o'spirinlik davrida kasbiy motivlarning shakllanishini shaxs rivojlanishining muhim bosqichi sifatida baholab, mazkur jarayonda ehtiyojlar, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi.<sup>5</sup> Bundan tashqari, A.N. Leontyev motivni inson faoliyatini harakatga keltiruvchi ichki psixologik omil sifatida izohlab, kasb tanlash jarayonini shaxsning ehtiyojlari, maqsadlari va hayotiy mazmuni bilan bog'liq holda tushuntiradi<sup>6</sup>. Kasbiy yo'nalish muammosini tadqiq etgan Y.A. Klimov esa kasb tanlashda shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari va individual-psixologik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Ta'kidlash joizki, olim tomonidan ishlab chiqilgan kasblar tipologiyasi o'spirinlarda kasbiy yo'nalganlikni shakllantirishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi<sup>7</sup>. Shuningdek, N.S. Pryajnikov kasbiy motivatsiyani shakllantirishda o'spirinlarning mustaqil tanlov qilishi hamda ongli kasbiy reja tuzishining muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha,

<sup>1</sup> Maslow A. H. A Theory of Human Motivation // Psychological Review. – 1943. – Vol. 50. – № 4. – P. 370–396.

<sup>2</sup> McClelland D. C. The Achieving Society. – Princeton: Van Nostrand, 1961. – 512 p.

<sup>3</sup> Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York : Plenum Press, 1985. – 375 p.

<sup>4</sup> Holland J. L. Making Vocational Choices: A Theory of Careers. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1973. – 198 p.

<sup>5</sup> Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. — СПб.: Питер, 2008. — 400 с. — (Серия «Мастера психологии»).

<sup>6</sup> Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, Академия, 2005. – 352 с.

<sup>7</sup> Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – М.: Издательский центр «Академия», 2010. – 304 с.

shaxsning kasbiy faoliyatga nisbatan faol va ongli munosabati barqaror motivatsiyaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.<sup>8</sup>

Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, ilk o'spirinlik davrida kasb tanlash motivatsiyasi shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur jarayon shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari va kasbiy yo'nalganligi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shuningdek, kasbiy motivatsiyaning rivojlanishi o'spirinning o'zini anglashi, kelajak maqsadlarini belgilashi hamda ongli kasbiy tanlovni amalga oshirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ilk o'spirinlik davrida kasb tanlash motivatsiyasining shakllanishi shaxsning kasbiy o'zini anglashi va kelajak hayot yo'lini belgilashi bilan bog'liq murakkab psixologik jarayon hisoblanadi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan nazariy yondashuvlar kasbiy motivatsiyaning rivojlanishi shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari va individual psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, oilaviy muhit, ta'lim jarayoni hamda ijtimoiy munosabatlarning o'spirinlarda kasbiy yo'nalganlik va ongli kasbiy tanlov shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi xorijiy hamda MDH psixolog olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Demak, ilk o'spirinlik davrida kasb tanlash motivatsiyasini rivojlantirishda psixologik yondashuvlardan samarali foydalanish hamda yoshlarning individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. — СПб.: Питер, 2008. — 400 с. — (Серия «Мастера психологии»).
2. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – М.: Издательский центр «Академия», 2010. – 304 с.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, Академия, 2005. – 352 с.
4. Пряжников Н.С. Профессиональное самоопределение: теория и практика. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 320 с.
5. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York : Plenum Press, 1985. – 375 p.
6. Holland J. L. Making Vocational Choices: A Theory of Careers. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1973. – 198 p.
7. Maslow A. H. A Theory of Human Motivation // Psychological Review. – 1943. – Vol. 50. – № 4. – P. 370–396.
8. McClelland D. C. The Achieving Society. – Princeton: Van Nostrand, 1961. – 512 p.

---

<sup>8</sup> Пряжников Н.С. Профессиональное самоопределение: теория и практика. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 320 с.